# BAXTSIZ HODISALARDAN SUG‘URTALASH SHARTNOMASI (OMMAVIY OFERTA) __________SONLI

20___ yil “____” ___________ ______________sh.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan Litsenziya asosida faoliyatni amalga oshiradigan, keyingi o‘rinlarda **“Sug‘urtalovchi”** deb ataladigan **“O‘zagrosug‘urta” Aksiyadorlik Jamiyati** nomidan 20___yil “____”__________________dagi _______-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat ko‘rsatuvchi Boshqaruv raisi o‘rinbosari B.Axadov bir tarafdan va ___________________ asosida harakat qiladigan, keyingi o‘rinlarda **“Sug‘urta qildiruvchi”**
(ustav, nizom, ishonchnoma-arizadan tortiladi)
deb ataladigan (korxonaning to‘liq nomi -arizadan tortiladi) nomidan (lavozimi, F.I.SH. -arizadan tortiladi) ikkinchi tarafdan quyidagi shartlar asosida mazkur sug‘urta shartnomasini tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Sug‘urtalovchi tomonidan Sug‘urta qildiruvchining xodimlarini baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilinishi. Sug‘urta qilinganlar ro‘yxati mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo‘lib ilova qilinadi.

1.2. Mazkur shartnomaga mos ravishda Sug‘urtalovchi, shartnomada belgilangan sug‘urta hodisasi yuz berganda Sug‘urta qildiruvchi, Sug‘urtalangan shaxs (Naf oluvchi)ga sug‘urta puli doirasida sug‘urta tovonini to‘lab berish majburiyatini oladi, Sug‘urta qildiruvchi esa shartnomada belgilangan muddatda, tartibda va hajmda sug‘urta mukofotini to‘lab berish majburiyatini oladi.

1.3. Baxtsiz hodisa natijasida Sug‘urtalangan shaxsning hoxish irodasiga bog‘liq bo‘lmagan mayiblanishi, jarohatlanishi yoki uning vafoti bilan hayoti va salomatligiga bog‘liq bo‘lgan mulkiy manfaatlari Sug‘urta obyekti hisoblanadi.

## 2. MAZKUR SHARTNOMADA ISHLATILADIGAN ATAMALAR MAZMUNI

| | |
|---|---|
| **Sug‘urtalovchi** | O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining litsenziyasi asosida faoliyat yuritayotgan “O‘zagrosug‘urta” aktsiyadorlik jamiyati. |
| **Sug‘urta qildiruvchi** | Sug‘urtalovchi bilan sug‘urta shartnomasini tuzuvchi, sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotini to‘lovchi hamda Sug‘urtalovchi bilan muayyan sug‘urta munosabatiga kiruvchi yuridik shaxs. |
| **Sug‘urtalangan shaxs (shaxslar)** | Hayoti va sog‘lig‘i bilan bog‘liq mulkiy manfaatlari sug‘urta himoyasi obyekti bo‘lgan jismoniy shaxs. |
| **Naf oluvchi** | Sug‘urta shartnomasiga muvofiq Sug‘urtalangan shaxs tomonidan Sug‘urta tovoni, sug‘urta pulini olishga tayinlangan shaxs. Sug‘urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda Naf oluvchi sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilmagan bo‘lsa, Naf oluvchi bo‘lib Sug‘urtalangan shaxsning qonuniy vorisi hisoblanadi. |
| **Sug‘urta shartnomasi** | Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi vujudga kelganda moddiy zararni qoplab berish majburiyatini olgan va Sug‘urta qildiruvchi shartnomada belgilangan sug‘urta mukofotini to‘lash majburiyatini olgan yozma kelishuv. |
| **Baxtsiz hodisa** | To‘satdan, qisqa muddatli, Sug‘urtalangan shaxsning hoxish – irodasiga bog‘liq bo‘lmagan, mayiblanish, jarohatlanishni yuzaga keltirgan va Sug‘urtalangan shaxsning vafotiga olib kelgan voqea. |
| **Sug‘urta hodisasi** | Sug‘urtalovchi tomonidan, sug‘urta puli doirasida sug‘urta tovonini to‘lab berish majburiyatini keltirib chiqarishiga olib kelgan Sug‘urta shartnomasida ko‘zda tutilgan voqeaning yuz berishi. |
| **Tabiiy ofatlar** | Tabiiy ofatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-avgustdagi “Gidrometeorologiya va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringi |

| | |
|---|---|
| | sohasida ixtisoslashtirilgan xizmatlar koʻrsatish reglamentini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 501-sonli qaroriga asosan sharhlanadi. |
| **Sugʻurta puli** | Sugʻurta shartnomasida sugʻurta tovonini toʻlab berish boʻyicha Sugʻurtalovchining javobgarligi chegarasi boʻlib, Sugʻurtalovchi va Sugʻurta qildiruvchi oʻrtasida kelishiladi. |
| **Sugʻurta tovoni** | Sugʻurta hodisasi natijasida xayot va salomatlikka yetkazilgan zararni qoplash boʻyicha Sugʻurtalovchi tomonidan, har bir Sugʻurtalangan shaxsning shaxsiy sugʻurta puli doirasida toʻlab beriladigan pul mablagʻi. |
| **Shaxsiy sugʻurta puli** | Har bir sugʻurtalangan shaxs uchun Sugʻurta shartnomasidagi umumiy sugʻurta pulining bir qismi sifatida belgilangan sugʻurta puli. |
| **Sugʻurta mukofoti** | Sugʻurta shartnomasida belgilangan tartib va muddatda Sugʻurtalovchiga Sugʻurta qildiruvchi tomonidan toʻlanadigan sugʻurta uchun haq. |
| **Sugʻurta polisi** | Sugʻurtalovchi tomonidan Sugʻurta qildiruvchiga (Sugʻurtalangan shaxsga) Sugʻurta shartnomasi shartlari asosida Sugʻurtalovchining majburiyati boshlanganligini tasdiqlash uchun beriladigan hujjat. |

## 3. SUGʻURTA HODISASI

3.1. Sugʻurta shartnomasi amal qilish davrida yuz bergan quyidagi hodisalar sugʻurta hodisalari hisoblanadi:

3.1.1. Sugʻurtalangan shaxsning baxtsiz hodisa tufayli mayiblanishi (jarohatlanishi);

Sugʻurtalangan shaxsning hohish irodasiga bogʻliq boʻlmagan holda kutilmagan hodisalar natijasida tananing jarohatlanishi, jarohatlanish natijasida tana a’zolarini ishlash funktsiyasini oʻzgarishi yoki oʻlimga olib keluvchi hodisalar:

-kuyish, muzlab qolish, choʻkish, elektr toki va yashin urishi, tabiat hodisalari (tezligi 20 m/s dan yuqori boʻlgan kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul), juda kuchli jala, sel va sel oqimi, yashin urishi, zilzila, toshqin, koʻchki, doʻl, juda kuchli qor yogʻishi), portlash hamda hayvonlar tajovuzi, tishlashi, chaqishi natijasida shikastlanishlar, gʻaraz niyatli shaxsni hujumi, Sugʻurtalangan shaxsning yiqilishi yoki ustiga biror bir jismni tushib ketishi, jismning urilishi, transport vositalarining (avtomobil, poezd, tramvay va boshqalarni) agʻdarilishi yoki ularning harakati vaqtida yoʻl transport hodisalarida, mashina, mexanizmlardan va boshqa turdagi asboblardan foydalanayotganda olingan jarohatlar, tasodifan nafas olish yoʻliga biror narsa tiqilib qolishi, zaharli oʻsimliklar, kimyoviy moddalar ta’sirida kuchli zaharlanish, tasodifan suyak sinishi, chiqishi, boʻgʻim va toʻqimalarning uzilishi, tana a’zolarining toʻliq yoki qisman yoʻqotilishi.

3.1.2. Sugʻurtalangan shaxsning baxtsiz hodisa tufayli vafoti (tabiiy oʻlim, shamollash va kasallik tufayli vafot etishdan tashqari).

Sugʻurtalangan shaxsning 3.1.1. bandida koʻrsatilgan baxtsiz hodisalar natijasida vafot etishi.

3.2. 3.1.1. kichik bandda koʻzda tutilgan sugʻurta hodisasi roʻy berganda Sugʻurtalangan shaxsga sugʻurta tovoni miqdori 2-ilovada keltirilgan toʻlovlar jadvaliga binoan davolash muassasasining hujjatlari asosida shikastlanish darajasi foizi hisobida aniqlanadi.

3.3. Sugʻurtalangan shaxs Sugʻurta hodisasi natijasida vafot etganda Naf oluvchi shaxsga yoki Sugʻurtalangan shaxsning vorislariga Sugʻurta puli toʻliq toʻlanadi. Sugʻurtalangan shaxs vafoti tufayli toʻlanadigan sugʻurta pulidan baxtsiz hodisa tufayli mayiblanishi (jarohatlanishi)ga ilgari toʻlangan toʻlov chegirib qolinadi.

## 4. ISTISNOLAR

**Quyidagilar Sugʻurta hodisasi hisoblanmaydi:**

4.1. barcha hildagi oʻtkir surunkali va nasliy kasalliklar (shu jumladan infarkt, insult va toʻsatdan a’zolarni kasallanishi, kasallikni nasldan naslga oʻtish natijasida uni rivojlanishi), anafilaktik shok va oziq-ovqat toksikoinfektsiyasi (salmonellez, ichburugʻ va boshqalar);

4.2. tergov yoki sud organlari tomonidan aniqlangan Sug'urtalangan shaxsning qasddan o'z hatti-harakatlari natijasida olgan jarohati yoki vafoti;

4.3. Sug'urtalangan shaxs alkogolli ichimlik, giyohvand yoki zaharli moddalar ta'sirida yoki o'zgacha tarzda mast holatda ichki yonuv dvigatelli yoki elektr dvigateliga ega bo'lgan har qanday o'zi yurar vositalar (avtomashina, mototsikl, motoroller, moped, motorli velosiped, kater yoki motorli qayiq, traktor, kombayn, trolleybus, tramvay va hokazolar)ni boshqarishi, shuningdek ushbu vositalarni boshqarishni spirtli ichimlik, giyohvand va zaharli moddalar ta'sirida mast holatda bo'lgan shaxsga berishi oqibatida yuzaga kelgan jarohat yoki o'lim;

4.4. yadro portlashi, radiatsiya va radiaktiv nurlanish, zaharlanish ta'sirida, harbiy harakatlar, harbiy mashqlar, fuqarolar urushi, ish tashlash, halq ko'tarilishini har xil turlari oqibatida olingan tan jarohatlari yoki o'lim;

4.5. Sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda Sug'urtalangan shaxslarning ishdan bo'shagan davrdan keyingi baxtsiz hodisalardan olgan jaroxati va uning oqibatida vafot etishi.

## 5. SUG'URTA PULI, SUG'URTA MUKOFOTI MIQDORI VA UNI TO'LASH TARTIBI

5.1. Sug'urta shartnomasining ilovasida ko'rsatilgan Sug'urtalangan shaxslar ro'yxati bo'yicha Sug'urtalangan shaxslar soni raqamda (son va so'z bilan) (Arizaning 3-qatoridan tortiladi) nafar.

5.2. Har bir sug'urtalanayotgan shaxs uchun sug'urta pulining miqdori raqamda (son va so'z bilan) so'm (Arizaning 6-qatoridan tortiladi).

5.3. Umumiy sug'urta puli raqamda (son va so'z bilan) so'm (Arizaning 4-qatoridan tortiladi)

5.4. Umumiy sug'urta mukofoti raqamda (son va so'z bilan) so'm (Arizaning 5-qatoridan tortiladi) qo'shimcha qiymat solig'isiz hisoblanadi.

5.5. Umumiy sug'urta mukofoti shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida bir yo'la, Sug'urtalovchining hisob-raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

5.6. Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta polisi sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining hisob-raqamiga kelib tushgan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida yozib beriladi.

5.7. Sug'urta shartnomasi bo'yicha barcha hisob-kitoblar milliy valyutada olib boriladi.

## 6. SUG'URTA SHARTNOMASINI KUCHGA KIRISHI VA SUG'URTA SHARTNOMASI (SUG'URTA POLISI)NI AMAL QILISHI

6.1. Mazkur sug'urta shartnomasini amal qilish muddati 20___ "____" ____________dan 20 ___ "____" ____________ (Arizadan tortiladi)gacha belgilanadi.

6.2. Sug'urtalovchining Sug'urta shartnomasi bo'yicha javobgarligi sug'urta mukofoti shartnomada belgilangan muddatda to'langan taqdirda sug'urta shartnomasida belgilangan kundan boshlab amal qiladi.

Sug'urta mukofoti shartnomada belgilangan (5.5. bandi) muddatdan keyin kelib tushsa, Sug'urtalovchining Sug'urta shartnomasi bo'yicha javobgarligi Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining hisob-raqamiga kelib tushgan kundan boshlanadi va bir yil davomida sug'urta polisida belgilangan sanagacha amalda bo'ladi.

6.3. Sug'urta polisi yo'qolgan hollarda Sug'urta qildiruvchining yozma arizasi asosida Sug'urtalovchi Sug'urta polisini dublikatini berishi mumkin.

Sug'urta polisini dublikati berilgandan so'ng yo'qolgan Sug'urta polisi haqiqiy deb hisoblanmaydi va u bo'yicha to'lov amalga oshirilmaydi.

6.4. Sug'urta qildiruvchining xodimi ishdan bo'shaganida, unga sug'urta tovoni sug'urta mukofoti miqdoridan oshgan holda to'lab berilgan bo'lsa, uning o'rniga yangi ishga qabul qilingan xodim bo'yicha alohida sug'urta mukofoti to'lanishi shart. Agar to'langan sug'urta tovoni sug'urta mukofoti miqdoridan kam bo'lgan taqdirda Sug'urta qildiruvchi yangi xodim uchun belgilangan sug'urta mukofotini to'ldirishga qo'shimcha to'lov qiladi.

6.5. Sug'urta shartnomasi quyidagi hollarda o'z kuchini yo'qotadi:

a) Sug'urta muddati tugaganda;

b) Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarganda;

d) Taraflar hohishi yoki talabi bilan (30 kun oldin ogohlantirgan holda);

e) O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6.6. Sug‘urta shartnomasi Sug‘urta qildiruvchining tashabbusi bilan muddatidan oldin bekor bo‘lganda to‘langan sug‘urta mukofoti qaytarilmaydi.

## 7. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

**7.1. Sug‘urtalangan shaxsning huquqlari:**

a) Sug‘urta shartnomasini tuzayotganda Naf oluvchi shaxsni tanlash;

b) Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda uning foydasiga tuzilgan Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Sug‘urtalovchi olgan javobgarlikni olib borishni talab qilish.

**7.2. Sug‘urtalangan shaxsning majburiyatlari:**

zarur hollarda xayoti va salomatlikka yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash maqsadida sog‘lig‘i holatini tekshirishga va kasallik tarixini o‘rganishga Sug‘urtalovchiga qarashli shifokor-ekspertga to‘sqinlik qilmaslik.

**7.3.Sug‘urta qildiruvchi huquqlari:**

a) Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urtalovchidan Sug‘urta shartnomasi amal qilish davrida sug‘urtaga doir maslahatlar olish;

b) Sug‘urta polisi yo‘qotilganda uning dublikatini olish;

d) Sug‘urtalovchi bilan kelishilgan holda Sug‘urta shartnomasiga qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar kiritish;

e) Sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan davrda ishdan bo‘shagan Sug‘urtalangan shaxslarni boshqa, agar to‘langan sug‘urta tovoni sug‘urta mukofoti miqdoridan oshmagan bo‘lsa, ularni o‘rniga qabul qilingan xodimlar bilan almashtirish va sug‘urta mukofoti bo‘yicha hisoblangan qo‘shimcha to‘lovlarni amalga oshirish (bunda Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urtalovchini (tegishli buyruq chiqqan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida yozma xabardor qilishi hamda Sug‘urtalovchiga ishdan bo‘shagan va ishga qabul qilingan xodimning F.I.SH.ni ma‘lum qilishi lozim);

f) Sug‘urtalovchi Sug‘urta tovoni yoki Sug‘urta pulini to‘lashni rad etganda unga nisbatan sudda da‘vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan e‘tiroz bildirish.

**7.4. Sug‘urta qildiruvchi majburiyatlari:**

a) Sug‘urta shartnomasi tuzilayotganda Sug‘urta qildiruvchi o‘ziga ma‘lum bo‘lib, sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug‘urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Sug‘urtalovchiga xabar qilish;

b) Sug‘urta shartnomasini tuzayotganda Sug‘urtalangan shaxs yoki Naf oluvchi shaxsni shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish;

d) Sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda, muddatda va miqdorda sug‘urta mukofotini to‘lash;

e) Ishdan bo‘shagan xodimga Sug‘urta polisi amal qilishi davrida Sug‘urta tovoni sug‘urta mukofoti miqdoridan ko‘p to‘lab berilgan bo‘lsa, uning o‘rniga yangi ishga qabul qilingan xodim uchun alohida sug‘urta mukofoti to‘lash;

f) Sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida yoki Sug‘urta qildiruvchi (Naf oluvchi shaxs) shartnoma tuzilayotganda Sug‘urtalovchiga ma‘lum qilingan holatlarda o‘ziga ma‘lum bo‘lgan muhim o‘zgarishlar to‘g‘risida, bu o‘zgarishlar sug‘urta xavfi ortishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, Sug‘urtalovchiga xabar qilish;

g) Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Sug‘urta hodisasi yuz berganda, Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgan vaqtdan 30 (o‘ttiz) bank kunidan kechikmay Sug‘urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi;

h) o‘z imkoniyati darajasida Sug‘urta hodisasi ro‘y berishini oldini olish choralarini ko‘rish;

i) sug‘urta hodisasi ro‘y berganda Sug‘urtalovchiga zarur bo‘lgan 8.5. bandda belgilangan hujjatlarni taqdim etish;

**7.5. Sug‘urtalovchining huquqlari**:

a) Sug‘urta shartnomasi tuzilgandan so‘ng Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urtalovchiga bila turib (sog‘liq va Sug‘urta xavfiga oid) yolg‘on ma’lumotlar berganligi aniqlansa, shartnomani haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atish;

b) Sug‘urta shartnomasini tuzishda va sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan davrda Sug‘urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni xaqqoniyligini hamda shartnoma shartlari Sug‘urta qildiruvchi tomonidan qay holda bajarilayotganligini tekshirish;

d) Sug‘urtalangan shaxs xayoti va salomatligiga zarar yetkazilganligi to‘g‘risida xabardor bo‘lganida Sug‘urtalangan shaxs bo‘yicha tibbiy ma’lumotlarni olish uchun mutasaddi tashkilotlarga so‘rovnoma yo‘llash;

e) Sug‘urtalovchi o‘ziga qarashli shifokor-ekspertni jarohat olgan Sug‘urtalangan shaxsning sog‘lig‘ini holati va kasallik tarixini o‘rganish uchun yuborish;

f) Sug‘urta hodisasi yuzaga kelishida aybdor shaxslarga nisbatan to‘langan sug‘urta pulini miqdorida pul mablag‘larini undirish uchun sudda da’vo qo‘zg‘atish;

g) Tegishli tashkilotlardan sug‘urta hodisasiga oid to‘liq ma’lumotlarni va sug‘urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlarni olinguniga qadar Sug‘urta tovoni yoki sug‘urta puli to‘lashni kechiktirib turish. Bunda Sug‘urta qildiruvchiga Sug‘urta tovoni yoki sug‘urta puli to‘lashni kechiktirib turilganligi sabablarini ko‘rsatgan holda yozma xabar yuborishi lozim.

h) sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan davrda avvalgi Sug‘urtalangan shaxsga sug‘urta tovoni to‘langan bo‘lsa va uni yangi ishga qabul qilingan shaxs bilan almashtirish jarayonida Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urtalovchining qo‘shimcha sug‘urta mukofoti to‘lash bo‘yicha talabini bajarmasa Sug‘urtalangan shaxsni almashtirishni rad etish.

**7.6. Sug‘urtalovchining majburiyatlari:**

a) Sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta shartnomasiga asosan sug‘urta mukofoti to‘lagandan so‘ng 3 kundan kechikmay sug‘urta polisini berish;

b) ro‘y bergan voqea sug‘urta hodisasi deb tan olinganda sug‘urta shartnomasida belgilangan muddatda va tartibda (kerakli hujjatlarni rasmiylashtirgandan so‘ng) sug‘urta tovoni yoki sug‘urta pulini to‘lab berish;

d) Sug‘urta tovoni yoki sug‘urta puli to‘lashni rad etish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan hollarda bu haqda Sug‘urta qildiruviga (naf oluvchiga) ular sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lashni so‘rab murojaat etganlaridan keyin o‘n besh kundan kechiktirmay asoslantirilgan dalil-isbotlarini o‘z ichiga olgan rad etish sabablarini yozma ravishda xabardor qilish;

e) Sug‘urta qildiruvchiga nisbatan maxfiylikni ta‘minlash;

f) Sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan davrda ishdan bo‘shagan Sug‘urtalangan shaxslarni boshqa ularni o‘rniga qabul qilingan xodimlar bilan almashtirish bo‘yicha Sug‘urta qildiruvchini xabarnomasini ko‘rib chiqish va Sug‘urtalangan shaxsni almashtirish;

## 8. SUG‘URTA DA‘VO ARIZASINI KO‘RIB CHIQISH VA SUG‘URTA TOVONI, SUG‘URTA PULI MIQDORINI ANIQLASH

8.1. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta tovoni yoki sug‘urta pulini olish huquqi shartnoma kimni foydasiga tuzilgan bo‘lsa o‘sha shaxsga, Sug‘urtalangan shaxs vafot etganda esa Naf oluvchiga tegishli bo‘ladi, Naf oluvchi ko‘rsatilmagan hollarda esa Sug‘urtalangan shaxsning qonun bo‘yicha vorisiga tegishlidir.

8.2. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Sug‘urta hodisasi yuz berganda, Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgan vaqtdan 30 (o‘ttiz) bank kunidan kechikmay Sug‘urtalovchini ro‘y bergan hodisa to‘g‘risida hodisani qayd etib qo‘yish maqsadida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

8.3. Sug‘urta hodisasi natijasida Sug‘urtalangan shaxs hayoti va salomatligiga zarar yetganida Sug‘urtalangan shaxsga sug‘urta tovoni miqdorida shifokor-ekspert xulosasi asosida 2-ilovada keltirilgan to‘lovlar jadvaliga binoan davolash muassasasining hujjatlari asosida shikastlanish darajasi foizi hisobida aniqlanadi.

8.4. Sug‘urta hodisasi natijasida Sug‘urtalangan shaxs vafot etganda Sug‘urta puli to‘liq shaxsiy sug‘urta puli miqdorida aniqlanadi va Naf oluvchiga to‘lanadi.

8.5. Sug‘urta tovonini olish uchun Sug‘urtalovchiga quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) baxtsiz hodisa natijasida sogʻliqqa zarar yetganda:

-sugʻurta polisi;

-Sugʻurta qildiruvchi (Naf oluvchi)ning arizasi;

-jarohat tufayli davolanganligi toʻgʻrisida davolash–profilaktika muassasasidan ma’lumotnoma yoki sugʻurta hodisasi sabablari, sanasi, tashhisi, davolash diagnostikasi, davolanish davomiyligi koʻrsatilishi lozim boʻlgan boshqa tibbiy hujjat;

-zarur hollarda sugʻurta hodisasi haqqoniyligi va holatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, jumladan rentgen surati, tergov yoki sud idoralarining hujjatlari va boshqalar;

-shaxsni tasdiqlovchi hujjat.

b) baxtsiz hodisa natijasida vafot etganda:

-sugʻurta polisi;

-Naf oluvchi shaxs (voris)ning arizasi;

-FXDYO boʻlimi tomonidan berilgan Oʻlim toʻgʻrisidagi guvohnoma yoki uning notarial idora tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

-vorislik huquqiga egaligini tasdiqlovchi hujjat;

-shaxsni tasdiqlovchi hujjat.

8.6. Sugʻurtalangan shaxsning yumshoq toʻqimalari, qulogʻi, koʻzi, siydik yoʻllari, jinsiy aʻzolari shikastlanganda Sugʻurtalangan shaxs taqdim etgan tibbiy hujjatlardan hulosa chiqarish uchun kerakli maʻlumotlar yetarli boʻlmasa, jarohat olgan shaxs Sugʻurtalovchi tomonidan mutaxassis shifokor huzuriga yuborilishi mumkin.

8.7. Sugʻurta shartnomasi (Sugʻurta polisi) boʻyicha Sugʻurtalovchi Sugʻurta hodisasi yuz berganda Sugʻurta qildiruvchiga (Sugʻurtalangan shaxslarga) yoki Naf oluvchi shaxsga shartlashilgan Sugʻurta puli yoki uning tegishli qismini Davlat ijtimoiy taʻminot pulidan qatʻiy nazar toʻla yoki qisman toʻlashi lozim.

8.8. Yuz bergan baxtsiz hodisa Sugʻurta hodisasi deb tan olingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida sugʻurta shartnomasi shartlariga koʻra sugʻurta tovonini toʻlanadi.

8.9. Sugʻurtalovchining sugʻurta tovonini yoki sugʻurta pulini toʻlashni rad etish toʻgʻrisidagi qarori Sugʻurta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) ular sugʻurta tovonini yoki sugʻurta pulini toʻlashni soʻrab murojaat etganlaridan keyin oʻn besh kundan kechiktirmay xabar qilinadi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini oʻz ichiga oladi.

8.10. Sugʻurta shartnomasi amal qilish davrida sugʻurtalangan shaxs boʻyicha bir necha sugʻurta hodisalari oqibatida toʻlanadigan sugʻurta tovoni toʻlovining umumiy summasi shaxsiy sugʻurta puli chegarasidan oshib ketmasligi lozim.

8.11. Sugʻurta tovoni (Sugʻurta puli) Sugʻurtalangan shaxs (Naf oluvchi)ning bankdagi hisob raqamiga pul oʻtkazib berish orqali toʻlanadi.

8.12. Sugʻurta shartnomasi (Sugʻurta polisi) kuchda boʻlgan davrda Sugʻurtalangan shaxs olgan jarohati tufayli Sugʻurta hodisasi roʻy bergan kundan bir yil ichida vafot etsa Naf oluvchi shaxsga yoki vorislariga Sugʻurta puli toʻlanadi. Ilgari toʻlangan sugʻurta tovoni toʻlanayotgan puldan ushlab qolinadi. Umumiy toʻlangan sugʻurta tovoni/sugʻurta puli shaxsiy sugʻurta pulidan oshmasligi lozim.

## 9. SUBROGATSIYA

9.1. Sugʻurta qildiruvchi yoki Naf oluvchining Sugʻurta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi toʻlangan summa doirasida Sugʻurtalovchiga oʻtadi. Sugʻurtalovchiga oʻtgan talab qilish huquqi uning tomonidan Sugʻurta qildiruvchi, Naf oluvchi va zarar uchun javobgar boʻlgan shaxs oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

9.2. Sugʻurta qildiruvchi yoki Naf oluvchi, Sugʻurtalovchiga oʻziga oʻtgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur boʻlgan barcha hujjatlar va dalillarni Sugʻurtalovchiga berishi, hamda barcha maʻlumotlarni unga maʻlum qilishi shart.

9.3. Sugʻurta qildiruvchi yoki Naf oluvchi, Sugʻurtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan oʻzining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish Sugʻurta qildiruvchining aybi bilan mumkin boʻlmagan boʻlsa, Sugʻurtalovchi Sugʻurta tovonini toʻliq

yoki uning tegishli qismini to‘lashdan ozod qilinadi va ortiqcha to‘langan Sug‘urta tovonini qaytarilishni talab qilishga haqli bo‘ladi.

## 10. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

Mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki kerakli darajada bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarligi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## 11. SUG‘URTA SHARTNOMASIDAN KELIB CHIQUVCHI TALAB VA NIZOLARNI KO‘RIB CHIQISH TARTIBI

11.1. Mazkur Sug‘urta shartnomasiga asosan Sug‘urtalovchi va Sug‘urta qildiruvchi (Sug‘urtalangan shaxs) o‘rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar o‘zaro kelushuvga asosan, kelishish imkoni bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasida amaldagi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

11.2. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha taraflar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda da‘vo qo‘zg‘atishlari mumkin.

## 12. BOSHQA SHARTLAR

12.1. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, sug‘urtalovchi va sug‘urta qildiruvchida bitta nusxadan saqlanadi va ularning har biri bir xil huquqiy kuchga ega.

12.2. Mazkur sug‘urta shartnomasida aks ettirilmagan holatlarni barchasida taraflar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan kelib chiqib harakat qiladilar.

## 13. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

| **“Sug‘urtalovchi” nomidan** | **“Sug‘urta qildiruvchi”** |
|---|---|
| **Nomi:** “O‘zagrosug‘urta” AJ | **Nomi:** (Arizadan tortiladi) |
| **Manzili:** Toshkent sh, Chilonzor tumani, 19-kv, 61/2-uy | **Manzili:** (Arizadan tortiladi) |
| **Bank:** “Mikrokreditbank” ATB | **Bank:** (Arizadan tortiladi) |
| **MFO:** 00433 | **MFO:** (Arizadan tortiladi) |
| **STIR:** 201042345 | **STIR:** (Arizadan tortiladi) |

**TARAFLARNING IMZOLARI:**

| **“Sug‘urtalovchi”** | **“Sug‘urta qildiruvchi”** |
|---|---|
| **Boshqaruv raisi o‘rinbosari** | **Lavozim (arizadan tortiladi)** |

**B.Axadov**

**(F.I.Sh. Arizadan tortiladi)**

20___yil “___”__________dagi
____________sonli shartnomaga
1-ilova

**SUG‘URTALANADIGAN SHAXSLARNING RO‘YHATI**

| № | Sug‘urtalangan shaxsning F.I.SH. | Lavozimi | Tug‘ilgan sanasi | Sug‘urta puli | Sug‘urta mukofoti |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | (Azidan tortiladi) | (Azidan tortiladi) | (Azidan tortiladi) | 15 000 000,0 | 45 000,0 |
| 2 | | | | | |
| ... | | | | | |

**“Sug‘urtalovchi”**

**Boshqaruv raisi o‘rinbosari**

**B.Axadov**

**“Sug‘urta qildiruvchi”**

**Lavozim (arizadan tortiladi)**

**(F.I.Sh. Arizadan tortiladi)**

20___yil “___”__________dagi
____________sonli shartnomaga
2-ilova

**Baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilishning barcha turlaridan sug‘urta hodisasi natijasida tan jarohati olishi bo‘yicha sug‘urta puli miqdorini aniqlash jadvali**

| Band | Shikastlanish turlari | Zararni qoplash miqdori % |
|---|---|---|
| | **MARKAZIY VA PEREFERIK NYERV SISTEMASI** | |
| 1 | Bosh suyak sinishlari | |
| | a) bosh suyagi tashqi plastinkasi | 5 |
| | b) bosh suyagi asosi | 20 |
| | d) bosh qobig‘i va asosi | 25 |
| | e) ochiq sinishlarda qo‘shimcha to‘lanadi. | 5 |
| 2 | Kalla suyagi ichining travmatik gematomalari (qon quyilishlari) | |
| | a) epidural (miyaning tashqi qavatida) | 20 |
| | b) subdural (ostida) | 25 |
| | d) intrakranial (miya ichida) | 20 |
| | e) subaraxnoidal (o‘rgimchak uyasimon parda osti) | 15 |
| 3 | Bosh miya moddasining majaqlanishi | 50 |
| 4 | Bosh miyani urilishi, lat yeyishi | 10 |
| 5 | Bosh miyani chayqalishi | 5 |
| | **Izoh:**<br>1. Agar kalla-miya jarohati bilan trepanatsiya (suyakni parmalab teshib, kasal joyni aniqlash) o‘tkazilgan bo‘lsa, 10% miqdorida qo‘shimcha sug‘urta qoplamasi bir marotaba to‘lanadi.<br>2. Agar kalla-miya jarohati natijasida 1-5 bandlarda qayd etilgan shikastlanishlar kelib chiqsa, har bir shikastlanishni hisobga olgan holda jamlash orqali sug‘urta qoplamasi to‘lanadi. | |
| 6 | Neyrotrop zahari bilan tasodifiy o‘tkir zaharlanish, kana yoki emlashdan so‘nggi entsefalit (entsefalomielit), atmosfera elektri, elektr toki urishidan, zaharli ilon, it, kalamush va boshqa hayvonlar tishlashi (chaqishi)dan statsionar davolanishdagi qoqshol (stolbnyak): | |
| | a) uzluksiz 2 dan 10 kungacha davolanganda | 7 |
| | b) uzluksiz 11 dan 20 kungacha davolanganda | 12 |
| | d) uzluksiz 21 kun va undan ko‘p kun davolanganda | 15 |
| 7 | Orqa miyaning har qanday darajada shikastlanishi, shuningdek dum suyagi | |
| | a) chayqalishi | 5 |
| | b) urilishi, lat yeyishi | 10 |
| | d) qisman uzilishi, qisilishi | 50 |
| | e) orqa miyaning to‘liq uzilishi | 100 |
| 8 | Bosh miya to‘qimalarining periferik shikastlanishi | 10 |
| 9 | Bo‘yinni, yelkani, belni, dumg‘azani nerv va to‘qimalarini shikastlanishi | |

| | | |
|---|---|---|
| | To‘qimalar: | |
| | a) travmatik pleksit | 10 |
| | b) to‘qimalarning qisman uzilishi | 40 |
| | d) to‘qimalarning uzilishi | 70 |
| | Nervlar | |
| | e) bilak-kaft, boldir-panja bo‘g‘imidagi | 10 |
| | f) bilak, boldirdagi | 20 |
| | g) yelka, tirsak bo‘g‘ini, son, tizza bo‘g‘inidagi | 40 |
| | **Izoh:** Qo‘l panjasi yoki oyoq panjasi darajasidagi nervlar shikastlanishi sug‘urta qoplamasini to‘lash uchun asos bo‘lmaydi. | |
| | **KO‘RISH A‘ZOLARI** | |
| 10 | 1 ta ko‘zning akkomodatsiyasi falaji | 15 |
| 11 | 1 ta ko‘zni gemianopsiyasi (1ta ko‘zni yarim ko‘rish maydonini pasayishi) | 15 |
| 12 | Bitta ko‘zni ko‘rish maydonini torayishi: | |
| | a) kontsentrik | 10 |
| | b) nokontsentrik | 15 |
| 13 | Bitta ko‘zni pulsatsiyali (uchib turishiga) ekzoftalmi (ko‘zning chaqchayishi) | 20 |
| 14 | Ko‘z olmasini teshib o‘tgan shikastlanishi, iridoktsiklit, xorioretenit, chandiqli trixiaz, ko‘z qovoq (lar)ni buralishi, ko‘zni rangdor pardasini nuqsoni, ko‘z qorachig‘i shaklining o‘zgarishi (16-bandning 2-izohiga qarang) | 10 |
| 15 | Bitta ko‘zni yosh ajratuvchi yo‘lining funktsiyasini buzilishi | 10 |
| 16 | Ko‘rish qobiliyatini pasayishini keltirib chiqarmagan II-, III-darajali kuyish, ko‘z olmasini teshib o‘tmagan shikastlanishi, gemoftalm (ko‘zning old xonasi bilan shishasimon modda bo‘shlig‘iga qon quyilishi), ko‘z gavharini siljishi, ko‘z olmasi va ko‘z kosasidagi magnit xususiyatiga ega bo‘lmagan yot jismlar, kon‘yuktivit, keratit, ko‘z olmasi qobiqlaridagi chandiqlar. | 5 |
| | **Izoh:**<br>1. Ko‘zni old kamerasiga qon quyilishi (gifema) agarda patalogik o‘zgarishlarni keltirib chiqarmagan bo‘lsa, u holda sug‘urta qoplamasi to‘lash uchun asos bo‘lmaydi.<br>2. Agar bir jarohat natijasida 14, 16-bandlarda ko‘zda tutilgan bir necha shikastlanishlar yuzaga kelib chiqsa, sug‘urta qoplamasi bir marotaba to‘lanadi.<br>3. Faqat shunday hollarda, agarda 10-16-bandlarda ko‘zda tutilgan ko‘z jarohati o‘zidan patalogik o‘zgarishlarni rivojlanishi va ko‘rish qobiliyati o‘tkirligini pasayishini keltirib chiqargan bo‘lsa, Sug‘urta qoplamasi shikastlanishlarni barcha asoratlarini hisobga olgan holda jamlash yo‘li bilan to‘lanishi mumkin. | |
| 17 | Har qanday ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lgan ikkala ko‘zni yoki har qanday ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lgan yagona ko‘zni ko‘rish qobiliyati to‘liq yo‘qolishini keltirib chiqargan ko‘zni shikastlanishi | 100 |
| 18 | Jarohat natijasida ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lmagan ko‘z olmasini olib tashlanishi | 10 |
| 19 | Ko‘z kosasini (chanog‘ini) sinishi | 15 |
| 20 | Ko‘rish qobiliyatini o‘tkirligi pasayishi (jadvalga qarang): | |

| Ko‘rish qobiliyatini o‘tkirligi | | To‘lanadi-gan sug‘urt qoplamasi miqdori % | | Ko‘rish qobiliyatini o‘tkirligi | | To‘lanadigan sug‘urta qolamasi miqdori % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| jarohat-gacha | Jarohatdan so‘ng | | | jaroh t-gacha | Jarohatdan so‘ng | |
| | 0.9 | 5 | | | 0.5 | 5 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.0 | 0.8 | 5 | 0.6 | 0.4 | 5 |
| | 0.7 | 5 | | 0.3 | 10 |
| | 0.6 | 5 | | 0.2 | 10 |
| | 0.5 | 10 | | 0. | 15 |
| | 0.4 | 10 | | < 0.1 | 20 |
| | 0.3 | 15 | | 0.0 | 25 |
| | 0.2 | 20 | 0.5 | 0.4 | 5 |
| | 0.1 | 30 | | 0.3 | 5 |
| | < 0.1 | 40 | | 0.2 | 10 |
| | 0.0 | 50 | | 0.1 | 10 |
| 0.9 | 0. | 5 | | < 0.1 | 15 |
| | 0.7 | 5 | | 0.0 | 20 |
| | 0.6 | 5 | 0.4 | 0.3 | 5 |
| | 0.5 | 10 | | 0.2 | 5 |
| | 0.4 | 10 | | 0.1 | 10 |
| | 0.3 | 15 | | < 0.1 | 15 |
| | 0.2 | 20 | | 0.0 | 20 |
| | 0.1 | 3 | 0.3 | 0.2 | 5 |
| | < 0.1 | 40 | | 0.1 | 5 |
| | 0.0 | 50 | | < 0.1 | 10 |
| 0.8 | 0.7 | 5 | | 0.0 | 20 |
| | 0.6 | 5 | 02. | 0.1 | 5 |
| | 0.5 | 0 | | < 0.1 | 10 |
| | 0.4 | 10 | | 0.0 | 20 |
| | 0.3 | 15 | 0.1 | < 0.1 | 10 |
| | 0.2 | 20 | | 0.0 | 20 |
| | 0.1 | 30 | < 0.1 | 0.0 | 20 |
| | < 0.1 | 40 | | | |
| | 0 0 | 50 | | | |
| 0.7 | 0. | 5 | | | |
| | 0.5 | 5 | | | |
| | 0.4 | 10 | | | |
| | 0.3 | 10 | | | |
| | 0.2 | 15 | | | |
| | 0.1 | 20 | | | |
| | < 0.1 | 30 | | | |
| | 0.0 | 40 | | | |

**Izoh:**

1. To‘liq ko‘r (0.0) bo‘lib qolishga ko‘rish qobiliyati o‘tkirligi 0.01dan past va yorug‘likni his qilish (yuzda barmoqlarni sanash) gacha tenglashtiriladi.

2. Jarohat natijasida ko‘rish qobiliyati shikastlangunga qadar ko‘rish qobiliyati bo‘lgan ko‘z olmasini olib tashlanishi, shuningdek bujmayib qolishiga sug‘urta qoplamasi 10% miqdorida to‘lanadi.

| | | |
|---|---|---|
| | **ESHITISH A‘ZOLARI** | |
| 21 | Quloq suprasini shikastlanishidan (jarohat, kuyish, sovuq urish) kelib chiqqan: | |
| | a) chandiq deformatsiyasi yoki quloq suprasini 1/3 qismigacha yo‘qligi | 5 |
| | b) quloq suprasini 1/2 qismi yo‘qligi | 10 |
| | d) quloq suprasini yo‘qligi | 30 |
| 22 | Eshitish qobiliyatini pasayishini keltirib chiqargan quloqning shikastlanishi | |
| | a) 1 dan 3 metrgacha masofadagi pichirlashuv | 5 |
| | b) 1 metrgacha pichirlashuv | 15 |
| | d) butunlay karlik (so‘zlashuv - 0) | 25 |
| 23 | Jarohat tufayli bitta quloqning nog‘ora pardasi yirtilishi va o‘zidan eshitish qobiliyati pasayishi kelib chiqmagan bo‘lsa | 5 |
| | **Izoh:**<br>1. Agar jarohat natijasida quloqni nog‘ora pardasi yirtilsa va oqibatda eshitish qobiliyati pasaysa sug‘urta qoplamasi 22 band bo‘yicha aniqlanadi, bunda 23 band qo‘llanilmaydi.<br>2. Agar kalla asosini sinishi natijasida quloqni nog‘ora pardasi yirtilsa (o‘rta bosh miya chuqurchasi) 23-band qo‘llanilmaydi. | |
| 24 | quloqning shikastlanishida kelib chiqqan jarohatdan keyingi surunkali otit (quloqning yallig‘lanishi) | 10 |
| | **Izoh:** 24 band bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta qoplamasi foizi jarohat olgan kundan boshlab, ***3 oy o‘tgandan*** keyingina belgilanadi. (Lor shifokori, otorinolarinolog xulosasi bilan) | |
| | **NAFAS OLISH SISTEMASI** | |
| 25 | Burun suyagi yoki peshonani old devorini, gaymor bo‘shlig‘ini sinishi | |
| | a) suyak parchalarisiz | 5 |
| | b) suyak parchalari bilan | 10 |
| 26 | O‘pka jarohati, teri osti emfizemasi emfizemasi (qovurg‘alar singanda havoni teri ostiga yig‘ilishi), gemotoraks (plevra bo‘shlig‘iga qon to‘planib qolishi), pnevmotoraks (o‘pka yirtilganda havoning plevra bo‘shlig‘ida to‘planishi), pnevmoniya (zotiljam), ekssudativli plevrit, ko‘krak bo‘shlig‘idagi yot jism: | |
| | a) bir tomonlama | 5 |
| | b) ikki tomonlama | 10 |
| | **Izoh:**<br>1. Jarohatni davolash davrida rivojlangan yoki jarohat tufayli o‘tkazilgan jarrohlik aralashuvidan keyingi pnevmoniya (ko‘krak qafasi shikastlanishidan va ko‘krak bo‘shlig‘i organlari shikastlanishidan tashqari) sug‘urta qoplamani to‘lash uchun asos bo‘lmaydi.<br>2. Agar qovurg‘a, ko‘krak suyagi sinishi o‘zidan 26 bandda ko‘zda tutilgan asoratni keltirib chiqarsa, ushbu band bo‘yicha sug‘urta qoplamasi 28,29-bandlarga qo‘shimcha to‘lanadi. | |
| 27 | O‘pka shikastlanishi,oqibatda yuzaga kelgan: | |
| | a) o‘pka qismini, bo‘lagini olib tashlanishi | 40 |
| | b) o‘pkani olib tashlanishi | 60 |
| 28 | To‘sh suyagi sinishi | 10 |
| 29 | Qovurg‘a sinishlari | |
| | a) 1 ta qovurg‘ani | 5 |
| | b) har bir keyingi qovurg‘a | 3 |
| | **Izoh:**<br>1. Reanimatsiya choralari davrida qovurg‘a sinishiga sug‘urta qoplamasi umumiy asoslarda to‘lanadi. | |

| | | |
|---|---|---|
| | 2. Qovurg‘a kemirchak (to‘qay) qismini sinishi sug‘urta qoplamasini to‘lashga asos bo‘ladi.<br>3. Agar har xil davolash - profilaktika muassasalaridan olingan ma‘lumotnomalarda shikastlangan qovurg‘alar soni har xil ko‘rsatilsa, ko‘rsatilgan eng yuqori qovurg‘alar sonini hisobga olgan holda sug‘urta qoplamasi to‘lanadi. | |
| 30 | O‘pka bo‘shlig‘ini ichiga kirgan jarohat, jarohat tufayli torakotomiya (operatsiya yo‘li bilan ko‘krak qafasini ochish) | |
| | a) o‘pka bo‘shlig‘i organlari shikastlanmaganda | 10 |
| | b) o‘pka bo‘shlig‘i organlari shikastlanishida | 20 |
| | **Izoh:** Agar ko‘krak qafasini va uning organlari shikastlanishi tufayli o‘pka yoki uning qismi olib tashlangan bo‘lsa, 27 bandga ko‘ra sug‘urta qoplamasi to‘lanadi, bunda 30 band qo‘llanilmaydi. | |
| 31 | Hiqildoq (bo‘g‘iz), kekirdak (nafas nayi) shikastlanishi, til osti suyagini sinishi, jarohat tufayli o‘tkazilgan traxeostomiya (kekirdakni operatsiya qilib, nafas olish uchun teshik ochish), yot jismni olib tashlash maqsadidagi bronxoskopiya | 10 |
| 32 | Xiqildoq, kekirdak, til osti suyagi, qalqonsimon tog‘aylarni shikastlanishi va jarohat tufayli o‘tkazilgan traxeostomiya o‘zidan nafas olish buzilishi, tovushni xirillab qolishi yoki tovushni yo‘qotish, troxeotomik naycha taqishni keltirib chiqargan bo‘lsa | 30 |
| | **Izoh:**<br>1. Agar 32-bandga ko‘ra sug‘urta qoplamasi to‘langan bo‘lsa, 31-band qo‘llanilmaydi.<br>2. Sug‘urta qildiruvchi arizada olgan jarohati hiqildoq yoki kekirdakni funktsiyasini buzilishini keltirib chiqarganni ko‘rsatsa, mutaxassis xulosasini olish zarur. | |
| | **YuRAK-QON TOMIR SISTEMASI** | |
| 33 | Yurak, uni pardasi va yirik asosiy qon tomirlar shikastlanishi | 25 |
| 34 | Yurak, qon-tomir yetishmovchiligini keltirib chiqargan yurak, uni qobig‘i va yirik asosiy tomirlar shikastlanishi | 50 |
| 35 | Qon aylanishi buzilishini keltirib chiqarmagan yirik periferik tomirlar shikastlanishi | 10 |
| 36 | Qon-tomir yetishmovchiligini keltirib chiqargan yirik periferik qon tomirlar shikastlanishi | 30 |
| | **Izoh:** Eng yirik asosiy tomirlarga aorta, o‘pka, nomsiz, uyqu arteriyasi, ichki bo‘yinturuq venalar, yuqori va pastki kavak venalari, darvoza vena, shuningdek ichki a‘zolarning qon aylanishini ta‘minlovchi asosiy tomirlar kiradi.<br>Eng yirik periferik tomirlarga o‘mrov osti, qo‘ltiqosti, yelka, tirsak va bilak arteriyalari bilakning pastki qismi darajasigacha, yonbosh, son, tizzaosti, old va orqa katta boldir arteriyalari boldirning pastki qismi darajasigacha yelka-bosh, o‘mrov osti, qo‘ltiqosti son va tizzaosti venalari kiradi. | |
| | **OVQAT HAZM QILISH A‘ZOLARI** | |
| 37 | Yuqori jag‘ning, yonoq (yuz) suyagi yoki pastki jag‘ni sinishi, pastki jag‘ning chiqishi. | 5 |
| | **Izoh:**<br>1. Yuqori va pastki jag‘larni sinishida sug‘urta qoplamasi har bir shikastlanishni hisobga olgan holda jamlash orqali to‘lanadi .<br>2. Jag‘ni sinishida bir yoki ikki tomonlama shikastlanish hisobga olinmaydi.<br>3. Stomatologiya manipulyatsiya vaqtida tasodifiy ro‘y bergan jag‘ sinishida sug‘urta qoplamasi umumiy asoslarda to‘lanadi.<br>4. Jarohat natijasida alveolyar o‘siqini sinishi oqibatida kelib chiqqan tishlar yo‘qolishi yoki tishlarni olib tashlanishi sug‘urta qoplamasini to‘lashga asos bo‘lmaydi.<br>5. Yuqori jag‘ni va yonoq suyagini sinishida sug‘urta qoplamasi bir marotaba to‘lanadi. | |
| 38 | Pastki jag‘ni odatiy chiqishi. | 15 |

| | | |
|---|---|---|
| | **Izoh:** Jag‘ni odatiy chiqishiga sug‘urta qoplamasi faqat shunday holatda to‘lananishi mumkin, agar bu asorat sug‘urtani amal qilish davrida olingan jarohat natijasida kelib chiqqan bo‘lsa. | |
| 39 | Jag‘ni shikastlanishidan kelib chiqqan | |
| | a) jag‘ qismini yo‘qotish | 40 |
| | b) jag‘ni yo‘qotish | 80 |
| | **Izoh:**<br>1. Jag‘ni yoki uning qismini yo‘qotish tufayli to‘lanadigan sug‘urta qoplamasida tishlarni yo‘qotish, ularni soniga qaramay hisobga olingan.<br>2. Jag‘ni jarohatlanishi oqibatida og‘iz bo‘shlig‘ining boshqa organlari shikastlanish holatlarida to‘lanishi kerak bo‘lgan sug‘urta qoplamasi foizi tegishli bandlarga ko‘ra ushbu shikastlanishlarni hisobga olgan holda jamlash yo‘li orqali aniqlanadi. | |
| 40 | Tilni jarohati (shikastlanishi, kuyishi, sovuq urishi) | 3 |
| 41 | Tilni jarohatlanishidan kelib chiqqan: | |
| | a) chandiq hosil bo‘lishi (uzunligidan qat‘iy nazar) | 5 |
| | b) tilni distal qismi (uchi)dan yo‘qotish | 15 |
| | d) tilni o‘rta qismidan yo‘qotish | 30 |
| | e) tilni tagidan yoki butunlay tilni yo‘qotish | 60 |
| 42 | Tishlar yo‘qotilishi: | |
| | a) 1 ta tish | 5 |
| | b) 2 – 3 ta tish | 10 |
| | d) 4 tadan - 6 tagacha bo‘lgan tishlar | 15 |
| | e) 7 tadan 9 tagacha bo‘lgan tishlar | 20 |
| | f) 10 va undan ko‘p bo‘lgan tishlar | 25 |
| | **Izoh:**<br>1. Jarohat natijasida protez (olib qo‘yiladigan yasama) tishlarni sinishi yoki yaroqsiz holga kelishida sug‘urta qoplamasi faqat tayanch tishlarni yo‘qotilishini hisobga olgan holda to‘lanadi. Jarohat natijasida protez (olib qo‘yiladigan yasama)ni shikastlanishiga sug‘urta qoplamasi to‘lanmaydi.<br>2. 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda sut tishini sinishi yoki yo‘qotilishiga sug‘urta qoplamasi umumiy asoslarda to‘lanadi.<br>3. Tishlarni yo‘qotilishiga yoki jag‘ni sinishiga to‘lanadigan sug‘urta qoplamasi miqdori 37 va 42-bandlar bo‘yicha jamlash yo‘li orqali aniqlanadi.<br>4. Jarohat natijasida tish koronkasini (to‘rtdan bir qismidan kam bo‘lmagan) sinishi yoki uzilishi tishni yo‘qotilishiga tenglashtiriladi.<br>5. Agar jarohat tufayli olib tashlangan tish implantatsiya qilinsa, sug‘urta qoplamasi umumiy asoslarda to‘lanadi. Uni olib tashlanishi holatlariga qo‘shimcha to‘lov amalga oshirilmaydi. | |
| 43 | Oshqozon – ichak yo‘li qismlarini shikastlanishi (jarohati, kuyishi): | |
| | a) og‘iz bo‘shlig‘ini,tomoqni, qizilo‘ngachni, oshqozonni | 5 |
| | b) qizilo‘ngachdagi, oshqozondagi yot jismni olib tashlash maqsadidagi ezofagogastroskopiya, o‘zidan keyin funktsiya buzilishlarini keltirib chiqarmagan bo‘lsaa | 10 |
| 44 | Qizilo‘ngachni shikastlanishi (jarohat, kuyish) oqibatda kelib chiqqan: | |
| | a) qizilo‘ngachni torayishi | 40 |
| | b) plastikadan so‘nggi holat, qizilo‘ngachdan ovqat o‘tmay qolishi (gastrostoma mavjudligi bilan). | 100 |

| | | |
|---|---|---|
| | **Izoh:** 44b band bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta qoplamasi foizi jarohat olgan kundan boshlab, ***6 oy o‘tgandan*** keyingina belgilanadi. Bu muddat o‘tmay turib, sug‘urta qoplamasi taxminan 44a band bo‘yicha to‘lanadi. | |
| 45 | Ovqat hazm qilish a‘zolarini shikastlanishi (yorilishi, kuyishi, jarohati), tasodifiy o‘tkir zaharlanishidan kelib chiqqan: | |
| | a) xoletsistit - o‘t pufagini yallig‘lanishi, duodenit (o‘n ikki barmoq ichak yallig‘lanishi), gastrit (oshqozon – ichak shilliq pardasini yallig‘lanishi), pankreatit (oshqozon osti bezining yallig‘lanishi), enterit (ingichka ichak yallig‘lanishi), kolit (yo‘g‘on ichak yallig‘lanishi), proktit (to‘g‘ri ichakni shilliq pardasini yallig‘lanishi), paraproktit (to‘g‘ri ichak va orqa chiqaruv teshigi atrofidagi kletchatkalarning yiringli yallig‘lanishi). | 15 |
| | b) ichakni, orqa chiqarish teshigini, oshqozonni chandiqdan torayishi (deformatsiyasi), ulanish kasalligi (ulanish tufayli o‘tmay qolishdan jarrohlik aralashuvidan so‘nggi holat). | 30 |
| | d) ichak yara teshigi (oqma), ichak-qin yara teshigi, oshqozon osti bezi yara teshigi | 50 |
| | e) g‘ayritabiiy orqa teshik (kolostoma) | 100 |
| | **Izoh:**<br>1. “a”, “b” kichik bandlarda ko‘zda tutilgan jarohat asoratlariga jarohatdan so‘ng ***3 oy o‘tgandan*** keyin sug‘urta qoplamalari to‘lanadi.<br>2. 45 (d, e) band bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta qoplamasi foizi jarohat olgan kundan boshlab so‘ng 6 oy o‘tgandan keyin turib aniqlanadi. Bu muddat o‘tmay turib, taxminan 45a band bo‘yicha sug‘urta qoplamasi to‘lanadi. | |
| 46 | Diafragmalar yoki operatsiyadan keyingi chandiq sohasidagi, qorin oldingi devorining shikastlangan joyida paydo bo‘lgan churra, agar jarrohlik aralashuvi jarohat tufayli o‘tkazilgan bo‘lsa, shuningdek xuddi shunday churrani jarrohlik aralashuvidan so‘nggi holati. | 10 |
| | **Izoh:**<br>1. 46 band bo‘yicha sug‘urta qoplamasi qorin a‘zolarini jarohati tufayli aniqlangan sug‘urta qoplamasiga qo‘shimcha to‘lanadi, agar u bevosita ushbu jarohat oqibatida paydo bo‘lgan bo‘lsa.<br>2. Og‘ir yuk ko‘tarish natijasida yuzaga kelgan qorin churrasi (kindik, oq yo‘li, chov va chov yorg‘oq churrasi) sug‘urta qoplamasini to‘lashga asos bo‘lmaydi. | |
| 47 | Jarohat natijasida jigarni shikastlanishidan yoki tasodifiy o‘tkir zaharlanishdan kelib chiqqan: | |
| | a) bevosita jarohat natijasida yoki tasodifiy o‘tkir zaharlanishdan rivojlangan gepatit (gepatoz) | 10 |
| | b) jigar uzilishi tufayli o‘tkazilgan olib borilgan jarrohlik aralashuvi | 15 |
| | d) o‘t pufagini olib tashlanishi | 20 |
| 48 | Jarohat oqibatida jigar qismini olib tashlanishi | 30 |
| 49 | Qorajigar - taloqni shikastlanishidan kelib chiqqan | |
| | a) jarrohlik aralashuvini talab qilmaydigan taloqni qobiq osti yorilishi | 5 |
| | b) taloqni olib tashlanishi | 30 |
| 50 | Oshqozonni, oshqozon osti bezini, ichakni, ichaktutqichni shikastlanishidan kelib chiqqan: | |
| | a) oshqozon osti bezida soxta o‘smani paydo bo‘lishi | 20 |
| | b) ichakni (ichaktutqichni) 1/3, oshqozonni 1/3 gacha bo‘lgan qismini olib tashlanishi (rezektsiyasi - kesib tashlanishi) | 30 |
| | d) ichakni 1/2, oshqozon osti bezi dumini 1/3, oshqozonni 1/2 qismini olib tashlanishi (rezektsiyasi) | 45 |
| | e) ichakni (ichaktutqichni) 2/3, oshqozonni 2/3, oshqozon osti bezi tanasining 1/2 qismini olib tashlanishi (rezektsiyasi) | 60 |

| | | |
|---|---|---|
| | f) ichakni (ichaktutqichni), oshqozon osti bezining 2/3 qismini, oshqozonni olib tashlanishi | 80 |
| | g) oshqozon osti bezining qismi va oshqozonni ichak bilan olib tashlanishi | 100 |
| 51 | Qorin a‘zolarining shikastlanishi oqibatida o‘tkazilgan | |
| | a) laparoskopiya (laparotsentez) | 5 |
| | b) qorin a‘zolarining shikastlanishi taxmin qilingandagi laparotomiya | 10 |
| | d) qorin a‘zolarining shikastlanishidagi laparotomiya | 15 |
| | e) qayta laparotomiya | 10 |
| | **Izoh:**<br>1. Agar qorin a‘zolarining shikastlanishi tufayli 47-50 bandlar bo‘yicha sug‘urta qoplamasini to‘lash uchun asos bo‘lsa, 51-band qo‘llanilmaydi.<br>2. Agar ovqat hazm qilish a‘zolarining jarohati tufayli o‘tkazilgan jarrohlik aralashuvida og‘ir shikastlanib o‘zgargan a‘zo va avval bor kassalligi tufayli uni to‘liq yoki qisman olib tashlanishida sug‘urta qoplamasi faqat 51 b band bo‘yicha to‘lanadi. | |
| | **SIYDIK CHIQARUV VA JINSIY A‘ZOLAR SISTEMASI** | |
| 52 | Buyrak shikastlanishida kelib chiqqan: | |
| | a) Buyrakni lat yeyishi | 5 |
| | b) buyrak qismini olib tashlanishi | 35 |
| | d) buyrakni olib tashlanishi | 60 |
| 53 | Siydik ajratib chiqaruvchi a‘zolarni (buyrak, siydik yo‘li, qovuq, siydik chiqaruv kanali) shikastlanishida kelib chiqqan: | |
| | a) tsistit (qovuqning yallig‘lanishi), uretrit (siydik chiqaruv yo‘lining yallig‘lanishi) | 10 |
| | b) pielit, pielonefrit (buyrakni va buyrak jomini yallig‘lanishi), pielotsistit, qovuq hajmini kichrayishi | 15 |
| | d) glomerulonefrit, siydik yo‘lini, siydik chiqaruv kanalini torayishi | 30 |
| | e) buyrakni yetishmovchiligi | 35 |
| | f) siydik yo‘lidan, siydik chiqarish kanalidan siydik o‘tmay qolishlik, siydik-tanosil oqma yarasi | 50 |
| | **Izoh.** Agar jarohat natijasida siydik ajratish sistemasining bir necha a‘zolarini funktsiyasi buzilishi kelib chiqsa, to‘lanishi kerak bo‘lgan sug‘urta qoplamasi foizi shikastlanishni eng og‘ir asoratlarini hisobga olgan holda 53-bandning kichik bandlaridan biri bo‘yicha aniqlanadi. | |
| 54 | Siydik ajratib chiqarish sistemasi a‘zolarini shikastlanishida o‘tkazilgan jarrohlik aralashuvi: | |
| | a) a‘zolarni shikastlanishiga taxmin qilinganda | 10 |
| | b) a‘zolar shikastlanganda | 15 |
| | d) jarohat tufayli o‘tkazilgan qayta jarrohlik aralashuvi | 10 |
| | **Izoh.** Agar jarohat tufayli buyrakni yoki uning qismi olib tashlangan bo‘lsa, sug‘urta qoplamasi 52- band (b,d) bo‘yicha to‘lanadi, bunda 54-band qo‘llanilmaydi. | |
| 55 | Siydik ajratib chiqarish sistemasi va jinsiy a‘zolarni shikastlanishi (jarohat, uzilishi, kuyishi, sovuq urishi) | 5 |
| 56 | Jinsiy a‘zoni shikastlanishida kelib chiqqan: | |
| | a) 1 ta tuxumdonni, bachadon naychasini, moyakni olib tashlanishi | 15 |
| | b) ikkala tuxumdonni, bachadon naychasini, moyakni, jinsiy a‘zoni qismini olib tashlanishi | 30 |
| | d) quyi yoshdagi ayollarda bachadonni yo‘qotish | |
| | 40 yoshgacha | 50 |
| | 40 dan 50 yoshgacha | 30 |

| | | |
|---|---|---|
| | 50 yosh va undan yuqori | 15 |
| | e) jinsiy a'zoni yo'qotilishi | 50 |
| | f) Shaxsni nomusiga tegishi - zo'rlash: | |
| | g) 15 yoshgacha | 50 |
| | h) 15 dan 18 yoshgacha | 30 |
| | i) 18 va undan ortiq yoshda | 15 |
| | **YUMSHOQ TO'QIMALAR** | |
| 57 | Yuzning yumshoq to'qimalarining, bo'yinni oldingi-yon sathi, jag' osti sohasini shikastlanishida kelib chiqqan | |
| | a) husnni o'rtacha buzilishi | 5 |
| | b) husnni anchagina buzilishi | 15 |
| | d) husnni keskin ravishda buzilishi | 40 |
| | e) husnni badbashara bo'lishi | 70 |
| | **Izoh:**<br>1. Husndagi sezilarli chandiqlarga atrofidagi teri rangidan farq qiladigan, tortilgan yoki uni yuzasiga tushib turadigan, tirishgan teri chandiqlari kiradi. Badbashara bo'lish - mexanik, ximik, termik va boshqa zo'rovonlik ta'sirlari natijasida odam yuzining tabiiy ko'rinishini keskin o'zgarishi.<br>2. Agar kallaning yuz suyaklari suyak parchalari bilan sinishi tufayli jarrohlik aralashuvi (ochiq repozitsiya) o'tkazilgan bo'lsa, natijada yuzda chandiq hosil bo'lsa, sug'urta qoplamasi sinishni va operatsiyadan keyingi chandiqni hisobga olgan holda to'lanadi, agar chandiq husnni qaysidir darajada buzsa.<br>3. Agar yuzni yumshoq to'qimalari shikastlanishi natijasida bo'yinni yon – oldi yuzasida, jag' osti sohasida husnni buzadigan chandiq yoki pigment dog' hosil bo'lishida sug'urta qoplamasini tegishli qismi to'langan bo'lsa, undan so'ng Sug'urtalangan shaxsni xuddi shunday husnni buzadigan yangi chandiqlar (pigment dog'lar) paydo bo'lishini keltirib chiqargan qayta jarohatiga sug'urta qoplamasi qayta jarohatni asoratlarini hisobga olgan holda yana to'lanadi. | |
| 58 | Boshning soch bilan qoplangan qismi, tana, qo'l-oyoqning yumshoq to'qimalarining shikastlanishidan kelib chiqqan bitgandan so'ng paydo bo'lgan chandiqlar kengligi | |
| | a) 2.0 dan 5.0 kv.sm gacha | 3 |
| | b) tana yuzining 5.kv.sm dan 0.5%gacha | 5 |
| | d) tana yuzining 0.5% dan 2.0% gacha | 10 |
| | e) tana yuzining 2.0% dan 4.0% gacha | 15 |
| | f) tana yuzining 4% dan 6% gacha | 20 |
| | g) tana yuzining 6% dan 8% gacha | 25 |
| | h) tana yuzining 8% dan 10% gacha | 30 |
| | i) tana yuzining 10% va undan yuqori | 35 |
| | **Izoh:** O'rganadigan tana yuzasining 1 foizi qo'l kaft yuzasining panjasi va barmoqlari kengligiga teng. Bu kenglik bilak bo'g'imidan 3-barmoqning tirnoq falangasini uchigacha o'lchangan kenglikka II-V-panja suyaklarini boshi (I-barmoqni hisobga olmay) darajasida o'lchanadigan panja uzunligini ko'paytirish orqali kvadrat santimetrda aniqlanadi. | |
| 59 | Tana, qo'l-oyoqning yumshoq to'qimalarining shikastlanishida paydo bo'lgan dog' pigmentlarini kengligi: | |
| | a) 1 dan 2 % gacha | 3 |
| | b) 2 % va undan yuqori | 5 |
| 60 | Kuyish shoki, intoksikatsiya, kuyish kasalligi | 10 |
| | **Izoh:** 60 band bo'yicha sug'urta qoplamasi kuyish yoki sovuq urishga to'lanadigan sug'urta qoplamasiga qo'shimcha to'lanadi. | |

| | | |
|---|---|---|
| 61 | Yumshoq to‘qimalarning yopiq shikastlanishida mushak churrasini kelib chiqishi, jarohatdan keyingi periostit, mushak va paylarning uzilishi, jarohat tufayli plastik operatsiyasini o‘tkazish uchun mushak va muskul pardasi transplantanta olish, shuningdek yumshoq to‘qimalardan olib tashlanmagan yot jismlar, so‘rilmagan gematoma. | 5 |
| | **UMURTQA POG‘ONASI** | |
| 62 | Umurtqaning bo‘g‘im o‘simtasi va to‘sh suyagi tanasini sinishi yoki chiqishi: | |
| | a) umurtqalarni biridan ikkitagacha | 20 |
| | b) umurtqalarni uch va undan yuqorisi | 30 |
| 63 | Umurtqalararo boylamni qisman yoki to‘liq uzilishi, umurtqaning chala chiqishi | 20 |
| | **Izoh:**<br>1. Agar jarohat tufayli operatsiya yo‘li bilan davolash olib borilgan bo‘lsa, sug‘urta qoplamasi 15 % miqdorida qo‘shimcha bir marotaba to‘lanadi.<br>2. Agar umurtqalarni sinishi yoki chiqishi orqa miyani shikastlanishiga olib kelsa, bunday holatlarda sug‘urta qoplamasi ikkala shikastlanishni hisobga olgan holda sug‘urta qoplamasi to‘lanadi. | |
| 64 | Ko‘ndalang va o‘tkir qirrali o‘siqlarni sinishi | |
| | a) biridan ikkitagacha | 5 |
| | b) uch va undan yuqorisi | 10 |
| | **Izoh:** Agar bitta jarohat natijasida umurtqa tanasini sinishi, boylamni shikastlanishi, ko‘ndalang va o‘tkir qirrali o‘simtani sinishi ro‘y bersa, sug‘urta qoplamasi eng og‘ir shikastlanishlarni ko‘zda tutgan band bo‘yicha bir marotaba to‘lanadi. | |
| 65 | Dumg‘aza dum suyagining sinishi, umurtqa dumining chiqishi | 10 |
| 66 | Dum suyagini olib tashlanishiga sabab bo‘lgan umurtqa dum suyagini sinishi yoki chiqishi | 20 |
| | **Izoh:** Agar bitta jarohat tufayli umurtqaning har qanday qismini, shuningdek dumg‘aza yoki dum suyagini sinishi (chiqishi) kelib chiqsa, sug‘urta qoplamasi har bir shikastlanishni hisobga olgan holda jamlash yo‘li orqali to‘lanadi. | |
| | Qo‘l panjasi | |
| | Kurak va o‘mrov | |
| 67 | Kurak, o‘mrov sinishi, akromial-o‘mrov, to‘sh- o‘mrov bo‘g‘inlari: | |
| | a) bitta suyakni sinishi yoki bitta bo‘g‘inni uzilishi | 5 |
| | b) ikkala suyakni sinishi, ikkita bo‘g‘inni uzilishi yoki bitta suyakni sinishi va bitta bo‘g‘inni uzilishi | 10 |
| | d) bitib ketmagan sinish, soxta bo‘g‘im, ikki bo‘g‘inni uzilishi va bitta suyakni sinishi, ikkita suyakni sinishi va bitta bo‘g‘inni uzilishi | 15 |
| | Yelka bo‘g‘imi | |
| 68 | Yelka bo‘g‘imining shikastlanishi (kurak bo‘g‘imi chuqurchasini sinishi, yelka suyagining boshchasi, anatomik bo‘yni va katta do‘mboqchasi sinishi, bo‘g‘im xaltasi, boylamni uzilishi, yelka chiqishi. | |
| | a) bitta suyakni sinishi, yelkani chiqishi, bo‘g‘im xaltachasi, boylamni shikastlanishi | 5 |
| | b) ikkita suyakni sinishi, sinish-chiqish | 10 |
| | d) suyak (suyaklar) sinishi va boylamni shikastlanishi, bitmagan sinish | 15 |
| 69 | Yelka bo‘g‘imini shikastlanishida kelib chiqqan | |
| | a) odatiy yelka chiqishi | 20 |
| | b) bo‘g‘imda harakat yo‘qligi (ankiloz) | 45 |
| | d) suyaklarini tashkil etadigan bo‘g‘imlar yuzasini rezektsiyasi natijasida “bo‘sh” yelka bo‘g‘imi | 60 |

| | | |
|---|---|---|
| | **Izoh:**<br>1. Agar 67, 68, 69 - bandlarda ko‘zda tutilgan shikastlanish natijasida jarrohlik aralashuvi o‘tkazilsa, 10% miqdorida qo‘shimcha sug‘urta qoplamasi bir marotaba to‘lanadi. Bunda transplant olinganligiga qo‘shimcha to‘lov amalga oshirilmaydi.<br>2. Yelkani odatiy chiqishiga sug‘urta qoplamasi faqat shunday holda to‘lanadi, agar bu chiqish sug‘urta shartnomasi amal qilish davrida sodir bo‘lgan birinchi chiqish natijasida ro‘y bergan bo‘lsa. Odatiy yelka chiqishi tashhisini chiqishni joyiga solgan davolash muassasasi tasdiqlagan bo‘lishi lozim. Odatiy yelka chiqishi qaytalashida sug‘urta qoplamasi to‘lanmaydi.<br>3. Agar yelka bo‘g‘imini jarohati tufayli 68-band bo‘yicha sug‘urta qoplamasi to‘lanib, undan so‘ng 69-bandda ko‘zda tutilgan asoratlar kelib chiqsa, 69-bandning kichik bandlaridan biri bo‘yicha sug‘urta qoplamasi avval to‘langan to‘lovni ayirish orqali to‘lanadi. | |
| | **YELKA** | |
| 70 | Har qanday darajada yelka suyagi sinishi (bo‘g‘im qismidan tashqari) | |
| | a) suyak sinishi siljimasdan | 15 |
| | b) suyak sinishi siljishi bilan | 25 |
| | **Izoh:** Agar yelka sinishi tufayli jarrohlik aralashuvi o‘tkazilgan bo‘lsa qo‘shimcha sug‘urta qoplamasi 10% miqdorida bir marotaba to‘lanadi. | |
| 71 | Qo‘lni travmatik uzilib tushishi (amputatsiyasi) yoki kesib tashlanishiga (amputatsiyasiga) olib kelgan uni og‘ir shikastlanishlari: | |
| | a) kurak, o‘mrov bilan yoki uning qismi | 80 |
| | b) yelkani har qanday darajasida | 75 |
| 72 | Soxta bo‘g‘imni paydo bo‘lish asoratlariga olib kelgan yelka suyagi sinishi (bitmagan sinish) | 45 |
| | **Izoh:** 72-band bo‘yicha sug‘urta qoplamasi jarohatdan so‘ng 9 oy o‘tgandan keyin to‘lanadi. Agar yelka sinishi tufayli avval sug‘urta qoplamasi to‘langan bo‘lsa, uning miqdori oxirgi to‘lanishga qaror qabul qilingan summadan ushlab qolinadi. | |
| | **TIRSAK BO‘G‘IMI** | |
| 73 | Tirsak bo‘g‘imi sohasidagi shikastlanish (bo‘g‘imni tashkil qilgan suyak sinishi, shuningdek metafizar, bo‘g‘im xaltachasi, boylamni shikastlanishi, bilakni chiqishi) | |
| | a) boylamni shikastlanishi, bo‘g‘imni chiqishi | 5 |
| | b) suyak parchalarisiz suyakni sinishi | 10 |
| | d) suyak parchasi bilan suyak (suyaklar)ni sinishi | 15 |
| 74 | Tirsak bo‘g‘imi sohasidagi shikastlanishda kelib chiqqan: | |
| | a) bo‘g‘imda harakat yo‘qligi (ankiloz) | 40 |
| | b) “bo‘sh” tirsak bo‘g‘imi (suyaklarini tashkil etadigan bo‘g‘imlar yuzasini kesib tashlanishi - rezektsiyasi) | 50 |
| | **Izoh:** Agar tirsak sinishi tufayli jarrohlik aralashuvi o‘tkazilgan bo‘lsa, qo‘shimcha sug‘urta qoplamasi 10% miqdorida bir marotaba to‘lanadi. | |
| | **BILAK** | |
| 75 | Bilak suyagini sinishi (diafiz-nayli suyakni o‘rta qismi) | |
| | a) bitta suyakni | 10 |
| | b) ikkita suyakni, bitta suyakni sinishi yoki ikkinchisini chiqishi | 15 |
| 76 | Soxta bo‘g‘imni paydo bo‘lish asoratlariga olib kelgan bilakni bir yoki ikkala suyagi sinishi (bitmagan sinish) | |
| | a) bilakni bitta suyagi | 25 |
| | b) bilakni ikkala suyagi | 40 |
| | d) bilakni bir suyagi va ikkinchisini bitgan sinishi | 35 |

| | | |
|---|---|---|
| | **Izoh:**<br>1.Agar bilak sinishi tufayli jarrohlik aralashuvi o‘tkazilgan bo‘lsa, qo‘shimcha sug‘urta qoplamasi 10% miqdorida bir marotaba to‘lanadi.<br>2. Bitmagan sinish yoki soxta bo‘g‘imga sug‘urta qoplamasi jarohatdan so‘ng 9 oy o‘tgandan keyin to‘lanadi. | |
| 77 | Bilakni travmatik amputatsiyasi yoki amputatsiyaga olib kelgan uni har qanday darajadagi og‘ir shikastlanishlari | 65 |
| | **BILAK-KAFT BO‘G‘IMI** | |
| 78 | Distal metafiz sohasidagi (aniq joyi) bilak suyaklarini sinishi, bilak bo‘g‘imini tashkil qiladigan suyaklarni bo‘g‘imi ichida sinishi, bo‘g‘im boylamini shikastlanishi, qo‘l panjasini chiqishi | 10 |
| 79 | Bo‘g‘imda harakat yo‘qligi (ankiloz)ni keltirib chiqargan bilak bo‘g‘imini shikastlanishi | 30 |
| | **Izoh:** Bilak-kaft bo‘g‘im sohasidagi jarohat tufayli jarrohlik aralashuvi o‘tkazilgan bo‘lsa, qo‘shimcha sug‘urta qoplamasi 10% miqdorida bir marotaba to‘lanadi. | |
| | **QO‘L KAFT SUYAKLARI** | |
| 80 | Bitta qo‘l kafti, kaft usti suyaklarini sinishi yoki chiqishi | |
| | a) bitta suyakni (qayiqsimondan tashqari) chiqishi | 5 |
| | b) qayiqsimon suyakni, 1 yoki undan ortiq suyaklarni sinishi | 10 |
| | d) bitmagan sinish, soxta bo‘g‘im | 15 |
| | **Izoh:** Agar qo‘l panja sohasidagi jarohat tufayli jarrohlik aralashuvi o‘tkazilgan bo‘lsa, qo‘shimcha sug‘urta qoplamasi 10% miqdorida bir marotaba to‘lanadi. | |
| 81 | Qo‘l kafti yoki kaft usti darajasida amputatsiyaga olib kelgan qo‘l panjasining travmatik uzilib tushishi (amputatsiyasi) yoki og‘ir shikastlanishi | 65 |
| | **QO‘L BARMOQLARI** | |
| | Birinchi barmoq | |
| 82 | Barmoqni bo‘g‘imi (bo‘g‘imlari) yumshoq to‘qimalarini nuqsoni bilan jarohati, chiqishi, sinishi, barmoq payi shikastlanishi, tirnoq ko‘chishi, xasmol (panaritsiy) | 5 |
| 83 | Barmoqni shikastlanishi, oqibatda kelib chiqqan xarakatsizlik: | |
| | a) bitta bo‘g‘imda | 10 |
| | b) barmoqni ikki bo‘g‘imida | 15 |
| 84 | Barmoqni travmatik uzilib tushishi (amputatsiyasi) yoki kesib tashlanishiga (amputatsiyasiga) olib kelgan uni har qanday darajadagi shikastlanishlari | |
| | a) tirnoq falangasi va falangalaroro bo‘g‘imda | 10 |
| | b) asosiy falanga, qo‘l kafti-falanga bo‘g‘imlarida (barmoqni yo‘qotish | 20 |
| | d) panja o‘zagi suyaklari | 25 |
| | Ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi barmoqlar | |
| 85 | Barmoqni bo‘g‘imi (bo‘g‘imlari) yumshoq to‘qimalarini nuqsoni bilan jarohati, chiqishi, sinishi, barmoq paylarini shikastlanishi, tirnoq ko‘chishi, xasmol (panaritsiy) | 5 |
| | **Izoh:** teri osti, pay, bo‘g‘im yoki syak xasmoli bo‘lgandagina 82 va 85-bandlar bo‘yicha sug‘urta qoplamasi to‘lanadi. Tirnoq gardishchasi (tirnoq o‘zagini qurshab turgan et)ning yallig‘lanishi (paronixiya) sug‘urta qoplamasini to‘lash uchun asos bo‘lmaydi. | |
| 86 | Barmoqni travmatik amputatsiyasi yoki shikastlanishi, o‘zidan barmoqni quyidagi sathida amputatsiyani keltirib chiqargan | |
| | a) barmoqni tirnoq bo‘g‘imi (bo‘g‘imi yo‘qotish) | 5 |
| | b) o‘rta bo‘g‘imi (2 ta bo‘g‘imini yo‘qotish) | 10 |
| | d) asosiy bo‘g‘imi (barmoq yo‘qotish) | 15 |
| | e) qo‘l kafti suyaklari | 20 |
| 87 | Bitta panjaning barcha barmoqlarni amputatsiyaga olib kelgan shikastlanishi yoki travmatik amputatsiyasi | 65 |

| | | |
|---|---|---|
| | **Izoh:** Bitta sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan davrda panjaning bir qancha barmog‘i shikastlanganda har bir shikastlanishni jamlash orqali hisobga olgan holda to‘lanadi. Faqat sug‘urta qoplamasi miqdori bitta panja uchun 65% va ikkala panja uchun 100 %dan oshib ketmasligi lozim. | |
| | **CHANOQ** | |
| 88 | Chanoq suyagini sinishi | |
| | a) yon bosh suyagi qanoti sinishi | 5 |
| | b) tos, tosni o‘tirgich, yonbosh suyagi tanasi, quymich kosasi sinishi | 10 |
| | d) 2 yoki undan ko‘p suyakni sinishi | 20 |
| 89 | Qov suyaklarini birlashgan bo‘g‘ini, dumg‘aza – yonbosh bo‘g‘ini uzilishi | |
| | a) 1 ta bo‘g‘in | 10 |
| | b) 2 ta bo‘g‘in | 15 |
| | d) 3 ta bo‘g‘in | 20 |
| | **Izoh:**<br>1. Agar chanoq suyagini sinishi yoki bo‘g‘inlarni uzilishi tufayli jarrohlik aralashuvi o‘tkazilgan bo‘lsa qo‘shimcha 10 % miqdorida sug‘urta qoplamasi bir marotaba to‘lanadi.<br>2. Agar bitta jarohat natijasida chanoq suyagini sinishi yoki bo‘g‘inning uzilishi kelib chiqsa, sug‘urta qoplamasi har bir shikastlanishni hisobga olgan holda to‘lanadi. | |
| | **OYOQLAR** | |
| | **CHANOQ-SON BO‘G‘IMI** | |
| 90 | Son suyagi boshi, bo‘yni sinishi, boylamni shikastlanishi, son chiqishi. | 20 |
| | **Izoh:** Agar chanoq-son bo‘g‘imi jarohati tufayli jarrohlik aralashuvi o‘tkazilgan bo‘lsa, 10 foiz miqdorida bir marotaba qo‘shimcha sug‘urta qoplamasi to‘lanadi. | |
| 91 | Chanoq-son bo‘g‘imi shikastlanishidan kelib chiqqan | |
| | a) bo‘g‘imda harakat yo‘qligi (ankiloz) | 50 |
| | b) “bo‘sh” bo‘g‘im (quymich kosasi, son boshi rezektsiyasi natijasida) | 70 |
| | d) endoprotezlash. | 45 |
| | **SON** | |
| 92 | Har qanday darajada sonning (bo‘g‘im sohasidan tashqari) sinishi | |
| | a) suyak sinishi siljimasdan | 20 |
| | b) suyak sinishi siljishi bilan | 25 |
| | **Izoh:** Agar sonning sinishi tufayli jarrohlik aralashuvi o‘tkazilgan bo‘lsa qo‘shimcha sug‘urta qoplamasi 10% miqdorida to‘lanadi. | |
| 93 | Soxta bo‘g‘im (bitmagan sinish) yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan son sinishi | 55 |
| | **Izoh:** Sonning bitmagan sinishi yoki soxta bo‘g‘imi sababli sug‘urta qoplamasi jarohatdan so‘ng 9 oy o‘tgandan so‘ng to‘lanadi. Agar avval sonning sinishi tufayli sug‘urta qoplamasi to‘langan bo‘lsa, keyingi to‘lanayotgan summadan uning miqdori ayriladi. | |
| 94 | Travmatik amputatsiya yoki og‘ir shikastlanishdan kelib chiqqan sonni har qanday sohasida oyoqlarning kesib tashlanishi (amputatsiyasi) | |
| | a) bitta oyoqni | 70 |
| | b) yagona oyoqni | 100 |
| | Tizza bo‘g‘imi | |
| 95 | Tizza bo‘g‘imini shikastlanishi, keltirib chiqargan | |
| | a) gemartroz, meniska (meniska)larni boylamlarni shikastlanishi, suyak fragmentlarini uzilishi | 5 |
| | b) tizzaning ko‘zi sinishi | 10 |

| | | |
|---|---|---|
| | d) tizza boʻgʻimlarini tashkil qiladigan (son suyagining distal epifizi va katta boldir suyagining proksimal epifizi) suyaklarining sinishi, boldir chiqishi | 20 |
| | **Izoh:**<br>1. Agar tizza boʻgʻimi sohasida jarohat tufayli jarrohlik aralashuvi oʻtkazilgan boʻlsa, qoʻshimcha sugʻurta qoplamasi bir marotaba 10% miqdorda toʻlanadi.<br>2. Tizza boʻgʻimining har xil tusdagi shikastlanishiga sugʻurta qoplamasi eng ogʻir shikastlanishni koʻzda tutgan 93-bandning kichik bandlaridan biriga koʻra 1 marotaba toʻlanadi. | |
| 96 | Tizza boʻgʻimi sohasida shikastlanishi, kelib chiqqan | |
| | a) boʻgʻimda harakat yoʻqligi | 35 |
| | b) suyaklarini tashkil etadigan boʻgʻim yuzasidagi rezektsiyasi natijasida “boʻsh” tizza boʻgʻimi | 45 |
| | **BOLDIR** | |
| 97 | Boldir suyaklarini sinishi | |
| | a) kichik boldir suyagi | 5 |
| | b) katta boldir suyagi | 15 |
| | d) ikkala suyaklar | 20 |
| | **Izoh:** Agar boldir suyagini sinishi natijasida jarrohlik aralashuvi oʻtkazilgan boʻlsa, qoʻshimcha sugʻurta qoplamasi bir marotaba 10% miqdorida toʻlanadi.<br>2. 97-band boʻyicha sugʻurta qoplamasi<br>- kichik boldir suyagini yuqori va oʻrta qismi sinishida;<br>-katta boldir suyagi diafizini har qanday darajada sinishida<br>- katta boldir suyagini diafiz sohasidagi (yuqori, oʻrta, quyi qismi) va kichik boldir suyagini tepa yoki oʻrta qismi sinishlarida belgilanadi.<br>3. Agar jarohat tufayli tizza koʻzi yoki boldir-panja boʻgʻimida katta boldir suyagini boʻgʻim ichida sinishi va diafiz darajasida kichik boldir suyagini sinishi, 95 va 97 bandlar yoki 99 va 97-bandlar boʻyicha jamlash orqali sugʻurta qoplamasi toʻlanadi. | |
| 98 | Travmatik amputatsiyasi yoki boldirning har qanday darajadagi amputatsisini olib kelgan ogʻir shikastlanishi | 60 |
| 99 | Soxta boʻgʻimni (bitmagan sinish) paydo boʻlishiga olib kelgan boldirni bir yoki ikkala suyagini sinishi | |
| | a) kichik boldir suyagi | 10 |
| | b) katta boldir suyagi | 30 |
| | d) ikkala suyakni | 40 |
| | e) kichik boldir suyagi va katta boldir suyagini bitib ketgan sinishi | 25 |
| | f) katta boldir suyagi va kichik boldir suyagini bitib ketgan sinishi | 35 |
| | **Izoh:** Sugʻurta qoplamasi 101 band boʻyicha jarohatdan soʻng 9 oy oʻtgandan keyin toʻlanadi. | |
| | **BOLDIR - KAFT BOʻGʻIMI** | |
| 100 | Boldir–kaft boʻgʻimi sohasidagi shikastlanish; | |
| | a) Boldir-kaft boʻgʻimi boylamini shikaslanishi, toʻpiq suyagini biri yoki katta boldir suyagini cheti sinishi; | 5 |
| | b) ikkala toʻpiq suyagini, katta boldir suyagini cheti bilan sinishi, oyoq tovon suyagi sinishi, distalli boldiraro sindezmozni uzilishi. | 10 |
| | d) toʻpiq suyagini biri yoki ikkalasi katta boldir suyagini cheti bilan sinishi, distalli boldiraro sindezmozni uzilishi va oyoq panjasining tagidan (chiqishi). | 15 |
| 101 | Boldir-kaft boʻgʻimi sohasidagi shikastlanishdan kelib chiqqan | |
| | a) Boldir-kaft boʻgʻimda harakat yoʻqligi (ankiloz) | 35 |
| | b) Boldir-kaft boʻgʻim “boʻsh” (suyaklarni tashkil etuvchi boʻgʻim yuzasini kesib tashlanishi – rezektsiyasi natijasida) | 40 |

| | | |
|---|---|---|
| | **Izoh:** 1. Boldir-kaft bo‘g‘im jarohati tufayli jarrohlik aralashuvi o‘tkazilgan bo‘lsa, 10 foiz miqdorida qo‘shimcha sug‘urta qoplamasi bir marotaba to‘lanadi.<br>2. Kichik boldir suyagini distal (pastki) qismi tashqi to‘piq sinishiga tenglashtiriladi. | |
| 102 | Axilla paylarini shikastlanishi | |
| | a) dori-darmonlar bilan davolash (operatsiyasiz) | 10 |
| | b) operatsiya yo‘li bilan davolash | 20 |
| | **OYOQ KAFT SUYAKLARI** | |
| 103 | Oyoq kaft suyagi (suyaklari) chiqishi, sinishi, paylari shikastlanishi | |
| | a) Oyoq kaft suyagi (suyaklari) chiqishi, pay uzilishi | 5 |
| | b) Oyoq kaft suyagi (suyaklari) sinishi | 10 |
| | d) bitmagan sinish, soxta bo‘g‘im | 15 |
| | **Izoh:**<br>1. Agar oyoq kaft suyaklari sinishi yoki chiqishi yoki paylarini uzilishi oqibatida jarrohlik aralashuvi o‘tkazilgan bo‘lsa, qo‘shimcha 10% miqdorida sug‘urta qoplamasi bir marotaba to‘lanadi.<br>2. Har xil jarohat natijasida oyoq kaft suyaklarining sinishlari yoki chiqishlarida sug‘urta qoplamasi har bir jarohatni hisobga olgan holda to‘lanadi. | |
| 104 | Oyoq kaftining travmatik amputatsiyasi yoki og‘ir shikastlanishidan kelib chiqqan har qanday darajadagi amputatsiya | |
| | a) oyoq kaft-falanga bo‘g‘imi (oyoq kaftining barcha barmoqlarining yo‘qotish) | 30 |
| | b) oyoq kaft (oldi) suyaklari (tovon bilan barmoqlar orasi) | 35 |
| | d) oyoq kaftining orqasi (oyoq panjasi bilan boldir orasi) | 40 |
| | e) taran, tovon suyaklari, boldir-panja bo‘g‘imi | 50 |
| | **OYOQ BARMOQLARI SUYAKLARI** | |
| 105 | Bitta oyoq barmog‘ining payi (paylari) shikastlanishi, barmoq bo‘g‘imi (bo‘g‘imlari) chiqishi, sinishi | |
| | a) bitta yoki bir necha barmoq bo‘g‘imining chiqishi, bir yoki ikki barmoqning paylari shikastlanishi, bitta tirnoq ko‘chishi | 5 |
| | b) uchtagacha va beshtagacha barmoqlarning paylari shikastlanishi, bir yoki bir necha barmoq bo‘g‘imini sinishi yoki chiqishi, ikki va undan ortiq tirnoq ko‘chishi | 10 |
| 106 | Barmoqni kesib tashlanishiga sabab bo‘lgan travmatik amputatsiya yoki shikastlanish: | |
| | Birinchi barmoq: | |
| | a) tirnoq bo‘g‘imi sohasida (tirnoq bo‘g‘imini yo‘qotish) | 5 |
| | b) barmoqning asosiy bo‘g‘imi sohasida (barmoqni yo‘qotish) | 10 |
| | 2-,3-,4-,5-barmoqlar | |
| | d) barmoqni o‘rta yoki tirnoq bo‘g‘imi sohasida bittadan - ikkitagacha barmoqlar (barmoqlar yo‘qotish) | 5 |
| | e) barmoqni asosiy bo‘g‘imi sohasida bittadan - ikkitagacha barmoqlar (barmoqlar yo‘qotish) | 10 |
| | f) barmoqni o‘rta yoki tirnoq bo‘g‘imi sohasida uchta - to‘rtta barmoqlar. | 15 |
| | g) barmoqni asosiy bo‘g‘imi sohasida uchta - to‘rtta barmoqlar (barmoqlarni yo‘qotish) | 20 |
| 107 | Jarohatdan keyingi tromboflebit, limfostaz, osteomielit, trofikani buzilishi rivojlanishini keltirib chiqargan shikastlanish | 10 |
| | **Izoh:**<br>1. Jarohatdan 6 oy o‘tgandan so‘ng qo‘l va oyoq jarohati natijasida kelib chiqqan tromboflebit, limfostaz, trofikani buzilishida (yirik periferik nerv va tomirlarni shikastlanishidan tashqari) 107-band qo‘llaniladi.<br>2. Qo‘l kafti va oyoq kafti barmoqlarini yiringli yallig‘lanishiga 107-band qo‘llash uchun asos bo‘lmaydi. | |

| | | |
|---|---|---|
| 108 | Travmatik shok | 10 |
| | **Izoh:** 108-band bo‘yicha sug‘urta qoplamasi to‘lovi jarohat natijasida kelib chiqqan boshqa shikastlanishlar tufayli to‘langan to‘lovlarga qo‘shimcha ravishda to‘lanadi. | |
| 109 | Davolash, diagnostik manipulyatsiyalar: | |
| | a) Bitta shikastlanish bilan skeletdan tortish (1 marotaba sonidan tashqari) | 3 |
| | b) bir bo‘g‘imni artroskopiyasi (sonidan qat‘iy nazar bir jarohatga 1-marta) | 5 |
| 110 | Sug‘urta sharnomasi o‘z kuchida bo‘lgan vaqtda sug‘urtalangan shaxs shikastlanib Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda ushbu “jadval”da ko‘rsatilmagan, lekin uzluksiz statsionar yoki ambulator davolash talab qilinganda hammasi bo‘lib 10 kundan kam bo‘lmagan–bir hodisada olingan shikastlanishni soniga qaramay – “jadval”dagi biror bandni qo‘llab bo‘lmasa | |
| | a) uzluksiz 10 kundan 15 kungacha davolanganda | 5 |
| | b) uzluksiz 16 kun va undan ortiq davolanganda | 8 |